



## BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARINING IJTIMOIYLAHV JARAYONIDA MULOQOT FUNKSIYALARINING O‘RNINI

*Kadirova D.N.*

*Termiz davlat universiteti dotsenti, biologiya fanlari nomzodi*

**Tayanch so‘zlar:** monolog, dialog, polilog, o‘quvchi, ijtimoiylashuv, jarayon, muloqot.

**Ключевые слова:** монолог, диалог, полилог, студент, социализация, процесс, общение.

**Key words:** monologue, dialogue, polylogue, student, socialization, process, communication.

Kirish. Dars mashg‘ulotlari jarayonida ijtimoiylashuvdagi faoliyatning shakllanishi, uning ijtimoiy-psixologik jihatini tashkil qilish, har qanday faoliyatni, shu jumladan, o‘quv faoliyatini tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarni o‘rganish so‘nggi o‘n yillarda amalga oshirila boshlandi. Ijtimoiylashuvdagi o‘quv faoliyatining maqsadi o‘zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Ijtimoiylashuvdagi faoliyat usuli deganda, o‘qituvchi bilan o‘quvchining birgalikdagi xatti-harakatlarining sistemasini tushunish kerak. Bunday xatti-harakatlar o‘qituvchining o‘quvchiga ko‘rsatadigan yordamidan boshlanadi, o‘quvchilarining faolligi asta-sekin o‘sa borib, butunlay ularning o‘zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo‘ladi. Ma‘lumki, har qanday pedagogik jarayonning asosiy maqsadi – ta‘lim oluvchida bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilishdir. Bu narsa ma‘lumotlar almashinuvi orqali ro‘y beradi. Pedagogik muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi, asosan, uch shaklda amalga oshiriladi:

1. Monolog; 2. Dialog; 3. Polilog.

**Tahlil va natija.** Hozirgi davrda yurtimizda bir qator o‘quv muassasalarida o‘qitishning yangi pedagogik-psixologik texnologiyalaridan unumli foydalanilmoqda, ammo dars mashg‘ulotlarida baribir asosiy an‘anaviy usul “o‘qituvchi monologi” tarzida olib boriladigan muloqotga asoslanadigan uslub



yetakchi o‘rin egallaydi. Dars mashg‘ulotlarida samarali muloqotni tashkil etishda quyidagi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb o‘ylaymiz:

- aqliy hujum (Brainstorming): tinglovchilarda hozirjavoblik (og‘zaki va yozma) sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usul (amerikalik olim A. Osborn 30-yillarda taklif etgan). Metodning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozara bahslashuvlar ko‘proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz asoslamay erkin, “tilga nima kelsa”, lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko‘proq muammo ancha notanish, savol murakkab va noaniq bo‘lgan sharoitlarda qo‘l keladi. Ya‘ni bunda «erkin assosatsiyalar»ga imkon beriladi va oxir-oqibat guruhning o‘zi ma‘lum ratsional “mag‘izni” ajratib oladi;
- bahs-munozara (Debate): alohida dars ko‘rinishida bo‘lib, o‘tilgan mavzuga doir bahsli, tortishuvli muammolarni ikki guruhga bo‘linib hal etish. Bu usulni qo‘llagan o‘qituvchi tinglovchilarni ikki guruhga – “tarafdorlar” va “qarshilar” guruhlariga bo‘ladi. O‘rtaga tayinlangan boshlovchi bahsni muvozanatga solib turadi;
- guruhlarga bo‘linib ishlash: darsdagi tinglovchilar soniga qarab 10-12 kishidan iborat guruhlarga bo‘linadi.

dars davomida tinglovchilarning motivatsiyalarini chuqur o‘rganish orqali ularda fanga nisbatan ichki intilishni kuchaytirishga harakat qilishi lozim.

Yo‘naltirish (Eliciting): yo‘naltirilgan yondashuv uslubidagi yangi texnologiya bo‘lib, qiyin mavzuni tushuntirishda savollar bilan murojaat qilish usulidir. Mazkur usulning afzalligi shundaki, o‘qituvchi tinglovchiga tayyor narsani aytib bermay, mavzuni mustaqil ravishda tushunib olishlariga imkon yaratadi.

Interaktiv (Interaction): “o‘qituvchi–o‘quvchi”, “o‘quvchi–o‘quvchi” muloqoti. Hozirgi kunga kelib, telekommunikatsiya xizmatlaridan, internet tarmog‘idan foydalanishga asoslangan o‘qituvchi va o‘quvchi muloqotining masofaviy usuli keng tarqalib bormoqda.

O‘quvchi endi maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. O‘quvchi ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, endi maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari bilan ham muloqotda bo‘ladi. O‘quvchilarda bu davrda mas‘uliyat hissi shakllanadi. Shu o‘rinda, o‘quvchilarning maktabga tayyorgarligi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz deb hisoblaymiz. Psixologiyada «7 yosh inqirozi» deb yuritiladigan inqiroz davri mavjuddir. Bu davr o‘quvchining o‘z «men»ligini tengdoshlari orasida tasdiqlashi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, 7 yoshda o‘quvchining bilish jarayonlarida (sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat) sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. O‘quvchidagi bo‘linuvchan beqaror diqqat





namunali nutq hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi o'z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda o'quvchilarda, eng avvalo, faol ishlatiladigan so'zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o'qish va yozishni o'zlashtirish o'quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar tovushlarni bir-biriga qo'shish orqali so'z tuzish malakasini egallab olgach, ba'zida matn mazmunini noto'g'ri tushunadilar. Unga o'quvchilarning so'z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo'ladi. Shu munosabat bilan o'qituvchi oldida o'quvchilarda lug'at boyligini oshirish va ularni o'qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o'rgatish funksiyasi turadi. Yozuv darslarida o'quvchi harf va so'zlarni yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab o'quvchi butun e'tiborini yozish texnikasiga va o'tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval o'quvchining yozma nutqi uning og'zaki nutqi orqali belgilanadi, ya'ni u so'zni qanday talaffuz etsa, shunday yozadi. Bu davrda o'quvchi bilan ovoz chiqarib aytish bo'yicha muntazam mashqlar o'tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi, o'quvchilarning yozma nutqlari ularning og'zaki nutqiga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. O'quvchilar nutqi kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun pedagoglar o'quvchilarga kichik maktab yoshidan boshlab og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan birga nutq funksiyalarini ham o'rgatib borishlari zarur. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda shaxsning erkinligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, muomala funksiyalarini tarkib toptirishga birlamchi e'tibor qaratilgan. Shunday ekan, o'smir va o'spirinlarni muloqot jarayonida mustaqil fikrini erkin ifodalash malakalarini va ularning tanqidiy fikrlashini shakllantirish psixolog-pedagoglar oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. Zero, XXI asrda yashaydigan har bir insonning tanqidiy fikrlashi uchun, avvalo, muloqotga o'rgatish zarur. O'smir va o'spirinlarni muloqotga o'rgatish uchun ularga psixologik, pedagogik adabiyotlarni o'qishga tavsiya qilish, muloqot jarayonida yoshlar faoliyatini kuzatish, fikrlashini aniqlash va shu jarayonda psixologik o'yinlar, mashqlar, treninglardan foydalanish muhimdir.

Maktabning o'rta va yuqori sinflarda yozma nutq mazmunli, ta'sirli bo'lib, grammatik jihatdan tobora to'g'ri, mukammal tuzilib boradi va oqibatda bunday nutq og'zaki nutqning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaydi. O'quvchilar nutqi bevosita kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun o'qituvchi nutqi o'quvchilar nutqini o'stirishda namuna bo'lib xizmat qilishi kerak. O'quvchilar tafakkurini o'stirmay turib, ularning nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarning reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Yozma va og'zaki nutqni o'stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o'qigan matnlarning tezisini, konspektini tuzish, Dars, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar bilan uchrashish muhim ahamiyatga ega. Nutq shartli reflekslar paydo



bo'lishining umumiy qonunlari asosida o'sadi. Agar kishi biror bir tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga o'rganib qolgan bo'lsa, unda bu kamchiliklarni tugatish qiyin bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarda yoshligidanoq ijobiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur. O'smirlar muloqotiga nisbatan o'spirinlar muloqoti ancha tarbiyalangan bo'ladi. Chunki ular muloqot funksiyalari, muomala sirlarini egallagan bo'ladilar. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri—bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, ba'zi hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz. Katta yoshdagi kishilar rasmiy va norasmiy munosabatlarga kirishadilar. Rasmiy munosabatlar ish, xizmat yuzasidan bo'ladi. Norasmiy muloqot esa ishdan boshqa paytlarda, uyda (oila), mahallada, ko'cha-ko'ylarda bo'ladi. Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot funksiyalari amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki kattalar ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot funksiyalari kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson ro'y beradi. Muloqot funksiyalari yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'z-o'zini anglash, tarbiyalash oqibatida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga namuna, ibrat bo'lishimiz bir-birimizga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. O'qituvchining eng muhim sifatlaridan biri uning o'quvchilar bilan o'zaro ijtimoiylashuvda ta'lim—tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil qilishi, ular bilan qizg'in muloqot qila olishi va ularga jonkuyar, mehribon rahbar bo'lishidir. Pedagogik—psixologik yo'nalishlarda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida, o'qituvchilarning sermahsul pedagogik faoliyatni amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan kommunikativ qobiliyati to'g'risida ko'plab fikr va mulohazalar yuritilgan. O'qituvchi o'z kasbiga qiziqmasa, o'quvchilarga nisbatan mehr—muhabbati bo'lmasa, ular bilan qizg'in muloqot qila olish qobiliyati, ya'ni kommunikativ xususiyatlari rivojlanmaydi. Uzoq yillar davomida pedagogika sohasida olib borilgan tajribalar shundan dalolat beradiki, kommunikativ faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun, o'qituvchining integral fanlar asoslarini va o'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini chuqur bilishi yetarli emas. Zero u, bilim hamda amaliy ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga faqat bevosita jonli muloqot vositasida bera oladi. O'qituvchi va o'quvchilarning jonli muloqoti, ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatning muhim sharti va mazmuni sifatida namoyon bo'ladi.

Insonning hayot tarzida eng muhim tarkibiy vosita bo'lgan muloqot, har qanday kasbiy faoliyatning barcha turlarida mavjud. Biroq bir qator kasb egalarida (chunonchi, pedagog, shifokor, san'atkor va hokazo) u kasbiy faoliyatga shunchaki



hamroh bo'lgan oddiy omil emas, balki kasbiy ahamiyat kasb etadigan, uning asosini tashkil etadigan muhim kategoriya sanaladi. Bu holda muloqot insonlar o'rtasidagi odatiy o'zaro ijtimoiylashuv shakli emas, balki kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlovchi kategoriya sifatida mavjuddir. Ayniqsa, "pedagogik faoliyatda muloqot muhim funksional, o'qituvchi uchun kasbiy jihatdan ahamiyatli vosita sanalib, o'zaro ta'lim va tarbiyaviy ta'sir quroli sifatida namoyon bo'ladi, bunda muloqotning muhim shartlariga va qonuniyatlariga, qo'shimcha funksiyalariga rioya qilishga to'g'ri keladi". Tajribalar shuni ko'rsatadiki, har qanday kasb egasining kishilar bilan odatiy o'zaro ijtimoiylashuv tizimida muloqot go'yo, shunchaki o'z-o'zicha sodir bo'ladi. Ma'lum bir maqsadga qaratilgan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda esa, muloqot ijtimoiy funksiyaga aylanadi, natijada o'qituvchi pedagogik muloqot qonuniyatlarini puxta bilishi, kommunikativ qobiliyat va kommunikativ madaniyatga ega bo'lishi talab qilinadi. Odatiy va kasbiy muloqot vaziyatini qiyoslab ko'ramiz. Aytaylik, do'stingizga nimanidir gapirib berayapsiz. Masalan, biror ko'rgan filmingiz to'g'risida, uning mazmun va g'oyasini bemalol so'zlayapsiz. Bu holda muloqotning turmushda ro'y beradigan odatiy kommunikativ shaklidagi shaxsga yo'naltirilgan tizimi bilan ish ko'rgan bo'lasiz. Tasavvur qiling, sizga shu funksiyani darsda, minbarda turib, o'quvchilar oldiga chiqib gapirib berish taklif etildi. Siz muloqotni amalga oshirish funksiyasini, avvalo, muloqotning tabiiy shakllari o'rniga kasbiy-funksional javobgarlik hissini, ya'ni kasbiy jihatdan anchagina murakkablashgan pedagogik faoliyatni darhol his etasiz.

Pedagogik faoliyatning muhim mikroelementlari nostandart yechimlardan iborat, garchi o'qituvchi faoliyatida pedagogik vaziyatlar bir qarashda bir biriga o'xshash ko'rinsa-da, o'qituvchining ushbu vaziyatlardagi har bir hatti-harakati mutlaqo noyob va betakroridir. O'qituvchining ijodiy pedagogik faoliyati tahlil qilinganda, mukammal shaklga ega bo'lgan tizimlardan iborat ekanligini ko'ramiz:

- o'qituvchining sinfda, o'quvchilar jamoasi bilan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga qaratilgan ijodiy tayyorgarligi;
- o'quvchilar bilan bevosita o'zaro ijtimoiylashuv asosidagi ijodkorlik.

O'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonidagi ijodkorligi bir nechta ko'rinishda namoyon bo'ladi:

- o'qituvchining o'quvchilarni mukammal bilish jarayonidagi ijodkorligi;
  - ular bilan o'zaro ijtimoiylashuv tizimidagi ijodkorlik;
  - o'quvchiga bevosita ta'sirni tashkil qilishdagi ijodkorligi;
  - o'z xulq-atvorini boshqara olishda (muloqotni o'zini-o'zi bilgan holda bir maromda olib borish) ijodkorlik;
  - o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil qilish jarayonida ijodkorlik.
- Modomiki, shunday ekan, ta'kidlash lozimki, o'qituvchining muloqoti



kasbiy-ijodiy kategoriya bo‘lib, pedagogik faoliyatda o‘qituvchi tomonidan ko‘plab kommunikativ funksiyalarni hal qilish jarayoni va ijobiy natijalar majmuasidir. O‘qituvchi ta‘lim-tarbiya jarayonida muntazam pedagogik ta‘sir o‘tkazish metodlari bilan ishlaydi: masalan, dars jarayonida yangi materialni tushuntirishda, o‘quvchiga aybi uchun dashnom berishda. Ushbu vaziyatda yosh o‘qituvchi avvalo nimalarga e‘tibor berishi kerak:

- birinchidan, vaziyat tahlil qilinadi;
- ikkinchidan, murakkab vaziyatdan chiqishning mumkin bo‘lgan variantlari saralanadi,
- uchinchidan, ushbu faoliyat, odatda tezkor amalga oshiriladi (bunda ham pedagogik muloqotning o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi) va optimal metodlar tanlanadi, faqat shundan keyingina pedagogik ta‘sir tashkil qilinadi. Biroq hali tanlangan ta‘sir metodiga adekvat bo‘lgan, u orqali pedagogik ta‘sir amalga oshiriladigan muloqot tizimini topishimiz kerak. Ya‘ni, ma‘lum bir maqsadga qaratilgan umumiy pedagogik funksiyani hal etgandan so‘ng, ta‘sir metodini tanlab bevosita ta‘sirni tashkil qilish uchun asosiy funksiya sifatida kommunikativ funksiya belgilanishi kerak. Kommunikativ funksiya pedagogik faoliyatda, nisbatan ishlab chiqaruvchi xarakterga ega bo‘lib, murakkab funksiyani hal etadi. Zero u pedagogik funksiyadan kelib chiqqan, shu sababli o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va belgilanadi. Aytish mumkinki, kommunikativ funksiya aynan muloqot tiliga o‘tkazilgan pedagogik funksiyaning o‘zi. Pedagogik amaliyotlar natijasi shundan dalolat beradiki, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan o‘zaro ijtimoiylashuvning o‘ziga xos to‘g‘ri metodini tanlab hamda vaziyatni to‘g‘ri baholagan taqdirda ham, ko‘pincha o‘z pedagogik ta‘sirini kommunikativ jihatdan ta‘minlay olmaydi, ya‘ni muloqotni o‘zaro muloqotda amaliy jihatdan tatbiq eta olmaydi. Pedagogik ta‘sirning o‘qituvchi tomonidan tanlanib qo‘llaniladigan metodlari bevosita muloqot orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, mazkur jarayonni yuksak mahorat bilan, ongli ravishda tashkil etish, pedagogik faoliyatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatda bu jarayonga tayyor turishi zarur. Buning uchun har bir o‘qituvchi mustaqil, o‘z pedagogik tajribalariga va mahoratiga asoslanib, o‘quvchilarga pedagogik ta‘sir etishning quyidagi mantiqiy obrazi jadvalini tuzadi, o‘zi uchun kerakli bo‘lgan, ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni mustaqil ravishda yig‘ib, qayd qilib borishlari hamda kasbiy ko‘nikma va malakalarini oshirib borishlari mumkin. Har xil pedagogik stajga ega bo‘lgan o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijasida quyidagilar aniqlandi: ularning ko‘pchiligi, garchi pedagogik ta‘sir vositalarini doimiy qo‘llasalar ham, kommunikativ funksiyalarni pedagogik jarayonning muhim zaruriy elementi sifatida anglab

yetmaydilar. Bunda deyarli barcha o'qituvchilar o'z pedagogik funksiyalarini doimiy ravishda amalga oshirish uchun tanlangan ta'lim va tarbiya metodlari tizimini hamda pedagogik ta'sir ko'rsatish kabi komponentlarni yaxshi anglab yetadilar. O'zining pedagogik amaliyotini doimiy ravishda tahlil qiladigan o'qituvchi uchun kommunikativ funksiyalarni o'z faoliyatining asosiy instrumental komponenti sifatida anglashi qanchalik muhim ekanligini, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tarbiyaviy ta'sir modeli qanchalik oydinlashishini, ta'sirning o'zi yanada jozibali, aniq, yorqin bo'lishiga ishonch hosil qiladi. A.S.Makarenko o'z faoliyatida qo'llagan pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikasida foydalanilgan metodlar, aksariyat hollarda ta'lim-tarbiyada mo'ljalni aniq olib, o'quvchilar bilan muloqotda vaziyatni to'g'ri tashkil qilish bilan belgilanishini ko'rish mumkin. "Ayrim holatlarda o'ziga xos «yuzma-yuz hujum», ba'zan tarbiyalanuvchining o'qituvchi bilan bevosita muloqotisiz ham gap nimada ekanligini tushunish imkoniyatini beradigan muloqot, yig'ilishlarda rasmiy suhbat tizimi yoki sinf jamoasi bilan turli tadbirlarni birgalikda o'tkazish, har bir o'quvchining nimalarga qodir ekanligini anglab yetish imkoniyatini namoyon etadi". O. Knebel moslashishni «kishilar muloqotining ichki va tashqi shakli» deb tasvirlaydi, bunda u bir-biriga qo'llaydigan ruhiy yurishlarni bir kishining ikkinchisiga ta'sir etish tanlanuvchanlik xususiyatiga ega ekanligini nazarda tutadi". Bu haqda A. S. Makarenko «Sen beri kel»ni 15-20 ohangda aytishga o'rganganimda va yuz ifodam, gavda va tovushimni 20 dan ortiq, holatga solishga muvaffaq bo'lganimdagina o'zimni haqiqiy mahoratimni seza boshladim. Shundagina kimdir meni oldimga kelib zarur narsani seza olmasligidan qo'rqmaydigan bo'ldim» deb yozgan edi.

Pedagogik faoliyatda o'qituvchi jonli muloqot orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- birinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonining o'qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o'zi javobgarligi;
- ikkinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy
- psixologik tizimning bir maromda ta'minlashi;
- uchinchidan, ta'lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi;
- to'rtinchidan, o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish, yashirin iste'dodini ro'yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish;
- beshinchidan, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o'qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmastlik. Ta'lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda



o'qituvchi muloqot jarayonida nojo'ya hatti – harakati, qo'polligi, o'ylanmay bildirilgan noto'g'ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o'quvchilar bilan bo'ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo'lmaz qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

**Xulosa.** Pedagogik muloqot-pedagogik ta'sirning ajralmas qismidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Ya'ni o'qituvchi va o'quvchining muloqoti. Bu esa o'z-o'zidan pedagogik ijtimoiylashuvni yuzaga keltiradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga keldik:

- pedagogik ijtimoiylashuv texnologiyasining amalga oshirilishi asosida o'qituvchi o'quvchi muloqotida mavjud to'siqlarni olib tashlash.
- har bir boshlang'ich sinf o'qituvchi o'quvchilarning psixologik holati va aqliy salohiyatini hisobga olgan holda muloqotni tashkil etishi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini erkin muloqot funksiyalarini rivojlantirish bilan birgalikda milliylikni aks ettirgan qarashlar va an'ana qadriyatlarini o'zida jamlagan muloqotchanlikni oshirish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlash va so'z boyligini oshirishda milliy tarbiyaga oid so'zlardan foydalanib borish.

#### Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. –B. 276.
2. Mirziyoyev SH.M. Xalq zakovati va qadriyatlarining gultoji.//O'zbekiston hunarmandchiligi durdonlari. Kitob-albom.–T.:O'zbekiston, 2019. – B. 6-7.
3. G'oziyev E. Muomala psixologiyasi. “Oqituvchi”T. 2001. -23 b.
4. Makarenko. A. S “Ta'lim-tarbiya tajribasidan ba'zi bir xulosalar” T.: O'qituvchi, 1988. -150 b
5. Omonov. H. T, Xattabov. M. B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: “Iqtisod\_moliya”, 2016. -143 b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqola o'quvchilarning ijtimoiylashuvida muloqot funksiyalarining mazmun-mohiyati, o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida muloqot funksiyalari pedagogik muammo sifatida va o'quvchilarning ijtimoiylashuv jarayonida muloqot funksiyalarining mavjud holati haqida yozilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье написано о сущности коммуникативных функций в процессе социализации учащихся, функциях общения в процессе социализации учащихся как педагогической проблеме, а также современном состоянии коммуникативных функций в процессе социализации учащихся.

#### SUMMARY

This article is written about the essence of communication functions in the socialization of students, communication functions in the process of socialization of students as a pedagogical problem, and the current state of communication functions in the process of socialization of students.